

## ARAB TILI HARFLARINING TALAFFUZINI SAMARALI O'QITISH METODIKASI

*Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti Sharq tillar fakulteti Filalogiya va  
tillarni o'qitish yo'nalishi (Yapo'n tili) 2-kurs talabasi*  
**ASRAFOVA SARVINOZ TO'LOQIN QIZI**

### ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada arab tili harflarining to'g'ri talaffuzini o'rganish bo'yicha samarali metodikalar tahlil qilinadi. Etibor ko'proq fonetik yondashuv, amaliy mashqlar va zamonaviy texnologik vositalardan foydalanishga qaratilgan. Metodik yondashuvlar orqali o'quvchilarda to'g'ri talaffuz qilish madaniyatini shakllantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Ilmiy yondashuvlarga asoslangan takliflar bilan yakunlanadi.

**KALIT SO'ZLAR:** Fonetik tahlil, zamonaviy yondashuvlar, amaliy mashqlar, amaliyotda qo'llangan natijalar.

### ASOSIY QISM

Fonetikasi o'ziga xos va murakkab tizimga ega bo'lib, talaffuzdagi eng kichik tafovutlar so'z ma'nosini o'zgartirishi mumkin. Shu sababli arab tilidagi harflarning to'g'ri talaffuzini o'rganish, ayniqsa, arab tili o'z ona tili bo'lmaganlar uchun, muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Arab tilida jami 28ta harf mavjud bo'lib, ular og'iz bo'shlig'ining turli nuqtalaridan (makhorij) hosil qilinadi. Bu esa ko'pchilikda qiyinchilik tug'diradi. Hozirgi kunda shunga doir juda ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda ilmiy maqolalar yozilmoqda. Shu jumladan juda ko'plab o'qigan maqolalarimda arab tili talaffuzini o'rganishga doir turli xil metodlar keltirib o'tilgan va bular samarali ekanligi asoslangan. Ulardan men quyidagilarni keltirib o'taman.

1. Innovatsion metodlar: Kommunikativ yondashuv; Talabalarni arab tilida erkin fikr bildirishi, og'zaki muloqotga jalb etish. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Ijtimoiy tarmoqlar, til o'rganish ilovalari, audio va video materiallar orqali o'rganish.

2. Lingvistik va nolingvistik to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan usullar:

Oddiy va qisqa dialoglardan boshlash, xatolardan qo'rqqanlik, eshitish orqali ko'nikma hosil qilish, har kuni tarjima bilan shug'illanish. Bu metodlar M.B. Yangiboyeva ( " Arab tili globallashtirish davrida :Innovatsion yondashuvlar metodikasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy- amaliy anjuman material bo'lgan. Arab tilini o'rganish: Muammolar va yechimlar mavzusidagi ilmiy maqolasida amaliy taribalar asosida berilgan umumiy tavsiyalar hisoblanadi.

2. Kommunikativ metod. Talaffuzga katta e'tibor: Ko'plab Osiyo mamlakatlarida, xususan, Misr va Saudiya Arabistonda, til o'rganishning kommunikativ metodlari keng tarqalgan. Ushbu metodda talaffuz, so'zlashuv va amaliy mashqlar ustuvor hisoblanadi. Maqsad o'quvchiga arab tilida so'zlashish va

tushunishni o'rgatish. Bu metod haqida Abdullayeva R.M. (Arab tili global lashuv davrida: Innovatsion yondashuvlar va o'qitish metodikasi xalqaro ilmiy-amaliy anjuma materiali) Arab tilini o'qitishda zamonaviy metodlar va jahon tajribasi mavzusidagi maqolasida keltirib o'tgan. Bundan tashqari Umarov A.A. ham (Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and Social Sciences Scientific Journal impact Factor Advanced Science Index Factor jurnalida chiqqan.) Arab tilining fonetik va leksik xususiyatlari va ularni o'qitish

Jarayonida inobatga olish "mavzusidagi maqolasida quydagilarni aytib o'tgan. Arab tili tovush larning hosil bo'lish joyi bo'yicha uyg'un taqsimlanish: Tovush paychalaridan labgacha, orqa tildagi tovushlar qoida tariqasida, qattiq harflarning talaffuzi alohida kuch va maxsus tayorgarlikni talab qiladi deb keltirib o'tgan. Sapashov Z.A. (Central Asian journal of Academic Research) jurnalida; arab tilini o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullari tadqiqi nomli maqolasida arab tili talaffuzini samarali o'rganish metodlari to'g'risida quyidagilarni aytib o'tgan. 1. Matnlarni yodlash usuli: Bu usul arab tilini o'rganishning eng qadimiy shakli hisobla nadi. Bunda hadislardan parchalar yodlash orqali o'quvchilar talaffuz va ifodani to'g'ri shakllantirishga katta e'tibor beradi. Kommunikativ yondashuv. Bu usul arab tilini amaliyotda qo'llashga qaratilgan. O'quvchilar nutqiy mashqlarga va suhbatlarga keng jalb qilinadi. Bu esa nafaqat grammatikani, balki muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Gammifatsiya; O'yin uslubi orqali til o'rganish o'quvchilar uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi bo'lib, ularning motivatsiyasini oshiradi. Misol, o'qituvchi arab tilidagi so'z boyligini oshirish uchun viktorinalar o'tkazadi, (eshitgan harfingni top) kabi o'yinlar o'ynaladi. Ushbu o'qigan maqolalarimdan kelib chiqib men ham ikki hafta ya'ni 9 soat mobaynida o'z o'quvchilarim bilan tajriba qilib ko'rdim. Guruhimizda 12ta o'quvchi bor va men bular bilan o'qigan maqolalarimda keltirilgan asosli metodlarni birin-ketin qo'llab ko'rdim va natijada birinchi metod matnlarni yodlash metodidan so'ng 60%, ikkinchi metod kommunikativ yondashuvdan so'ng 75% va so'ngi gammifikatsiya metodidan so'ng imtihon natijalarida 86% ko'rsatkich qildi.

### **XULOSA.**

Til o'rganishni endigina boshlagan o'quvchilar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi xoh u arab tili bo'lsin xoh boshqa til. Aslini olganda hamma tilni o'rganish startegiyasi va o'rganishdagi xatolar ham bir xil bo'ladi va hamma muammoga yechim toppish imkoni bo'lganidek bu qiyinchiliklarga ham yechim bor albatta shu jumladan men qisqa muddat davomida 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarim bilan o'tkazgan tajribamdan va o'qigan maqolalarimdan kelib chiqib kommunikativ yondashuv va eng ko'p samara bergan gammifikatsiya usuli samarali bo'lganini aytib o'ta olaman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Yangiboyeva M.B. (Arab tilini o'rganish: muammolar va yechimlar) maqolasi,

2. Sapashev Z.A.(Arab tilini o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullari tadqiqi ),
3. Umarov A.A.(Arab tilining fonetik va leksik xususiyatlari va ularni o'qitish jarayonida inobatga olish),
4. Abdullayeva R.M.(Arab tili globallashuv davrida Innovatsion yondashuvlar va o'qitish metodikasi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman material) .